

Kutlikov Valisher Nurmaxamat o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

1-TTJ tarbiyachi pedagogi

Annotatsiya: Milliy tiklanish jarayonidan milliy yuksalish sari yo'l olgan O'zbekistonning madaniy va ma'naviy qadriyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi roli, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish orqali milliy yuksaklikka erishish tamoyillari yoritilgan. Milliy merosning zamonaviylik bilan uyg'unligi va bu jarayonda xalqning ruhiy-ma'naviy qadr-qimmatining mustahkamlanishi tadqiq etilgan. Yuksak madaniyat va milliy o'zlikni saqlash orqali jamiyat rivojiga erishishning ahamiyati hamda bu yo'ldagi harakatlarning strategik yo'nalishlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: milliy tiklanish, milliy yuksalish, qadriyatlar, ma'naviyat, madaniy meros, milliy o'zlik, zamonaviylik, ma'naviy taraqqiyot.

Qadriyatning uch guruhi bo'lib, ular milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'linadi. Milliy qadriyat muayyan elat, millat, uning ajdodlarga xos bo'lgan behad qimmatli ma'naviy boylikdir. Mintaqaviy qadriyat esa, muayyan jo'g'rofiy millatlarga xos, ular uchun umumiy bo'lgan ma'naviy boyliklar hisoblanadi. Bunga Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak qadriyatlarini misol qilib keltirish mumkin. Umuminsoniy qadriyat esa butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy boyliklardan tashkil topadi. Milliy qadriyat, avvalo tarixiy hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kun yo bir yilda shakllanmasdan, balki insoniyatning milliy ma'naviy tarixi, millatning ma'naviy kamol topish jarayoni bilan bog'lanib ketadi. Milliy qadriyatning asosiy belgisi va o'zagi, milliy axloq, milliy his-tuyg'u, milliy ruhiyat kabi masalalar bilan bog'liq, shu bilan birga milliy qadriyatda milliy manfaat masalalarini ham o'rganib chiqish maqsadga muvofiq. Ma'naviyat majmui ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanadi. Milliy axloq qadriyatning markazida turadi. Uning belgilari rostlik, adolat, do'stlik, insonparvarlik, bir-biriga hurmat, hamjihatlik, bilimlilik, mehnatsevarlik, ona tili va Vatanga muhabbat, saxovat, mas'ullik, halollik singari fazilatlaridir.

O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtiram, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi. Xalqimiz juda qadim vaqtlardan boshlab ko'chmanchilikdan o'troq hayot kechirishga o'tgan, shunday hayot tarziga o'rgangan. Odamlar o'zi o'rnashib qolgan yerni, uning atrofidagi suv manbalarini qadrlashni, asrashni odat qilganlar. Chunki mana shu suv va yer yordamida olinadigan hosil insonlarning rizqi, tirikchiligining manbai hisoblangan. Bunday o'troq hayot tarzi odamlarni jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib yashashiga, mehnat qilishi, mehnat mahsullarini o'zaro ayirboshlash orqali savdo munosabatlariga kirishishiga olib kelgan. Shu tariqa qishloq xo'jaligi hamda shahar madaniyati yuksala borgan. Yurtimizda bunyod etilgan Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Termiz, Qo'qon singari o'nlab shaharlarimizning yoshi ming yillar bilan o'lchanishi ham bejiz emas. Xalqimiz o'zi tug'ilib o'sgan yer-zaminga qattiq bog'langan, uni e'zozlashni bolaligidan o'rganib, his qilib o'sadigan

millat sanaladi. Demak, xalqimizning o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlarining boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini, oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlarni ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.

Har bir millat o'z qadriyatlarining nafaqat yaratuvchisi, balki asrab-avaylovchisi va kelajakka yetkazuvchisi hamdir. Milliy qadriyatlarining saqlanishi uchun har bir millatning o'zi mas'ul hisoblanadi. Ushbu mas'ullik milliy rivojlanish jarayonida shakllangan ma'naviy burchning alohida shaxslarga emas, butun millatga xos namoyon bo'lishini anglatadi. Hatto xalq ma'lum bir davrda ozod bo'lmagan, siyosiy jarayonlar natijasida biror bir imperiyaga vaqtincha qaram bo'lganda ham unda o'z milliy qadriyatlarini saqlash tuyg'usi yo'qolib ketmaydi.

Kishilarning muayyan tarixiy sharoitida vujudga kelgan va avloddan avlodga o'tib boradigan g'oya, dunyoqarashi, urf-odati, tartibi, shuningdek xulq-atvor meyorlari an'anadir. Uzoq tarixga borib taqaladigan milliy urf-odatlarimiz, ana'analarimiz, xalq og'zaki ijodiyoti, klassik, mumtoz, zamonaviy qo'shiqchilik, milliy maqom, baxshichilik, muzeylar va teatrlar, konsert tashkilotlari, ijodiy jamoalarning faoliyatini tartibga soluvchilar, xalqqa yetkazib beruvchilar sanaladilar. Zero, har bir xalqning san'ati shu xalqni dunyoga tanitadi, jahon sahnalarida shu xalqning nomidan so'z aytishga sharoit yaratadi. O'zbekistonda Uchinchi Renessans davrining talabi- zamon bilan hamnafas, dunyo yoshlari bilan bilim tafakkur borasida bellasha oladigan, mustaqil fikrlaydigan, tafakkuri, didi baland, xorijiy tillar bilimdoni, har tarafdin yetuk yoshlarni tarbiyalash-bugungi kunning kechiktirib bo'lmas vazifasidir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasining yuksak minbaridan turib, tarixda birinchi marta "Navoiy tili" da o'zbek tilida nutq so'zlagan O'zbekiston rahbarining mamlakatimizda har bir yigit-qizning jamiyatda munosib o'rin egallashi va o'z salohiyatini namoyon etishi uchun ulkan ishlar amalga oshirilayotganini e'tirof etganlari ham ilm-fan yo'lida faoliyat olib borayotgan millat murabbiylariga katta iftixor bag'ishlaydi.

Ma'lumki, azaldan ijod ahli, adabiyot va san'at namoyandalari moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash muhim vazifalardan bo'lib kelgan. Zero, chinakam ijod tug'ilishi, rivoj topishi uchun iqtisodiy ta'minot va farovonlik nihoyatda zarur. Prezidentimizning 2017 yil 16 noyabrda "Respublika oliy Madaniyat va san'at muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori asosida 2017-2018 o'quv yilidan boshlab alohida iqtidor talab qilinadigan madaniyat, dizayn, tasviriy va amaliy san'at, san'atshunoslik, musiqiy ta'lim, sport va jismoniy tarbiya sohasidagi 18 ta'lim yo'nalishiga qabul qilish test sinovlarisiz, ijodiy imtihonlar orqali amalga oshirilishi madaniyat va san'at sohasi ixlosmandlari bo'lgan yoshlar uchun ayni muddao bo'ldi.

Unga ko'ra O'zbekiston davlat konservatoriyasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Kamoliddin Behzod nomidagi milliy dizayn va rassomchilik instituti, Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabida ijodiy imtihonlar joriy qilindi. Teatr va kino san'atiga berilayotgan e'tibor doirasida Prezidentimizning soha xodimlari bilan uchrashuvlardagi takliflari asosida "Aktyorlik san'ati" (faoliyat turlari bo'yicha) maxsus sirtqi bo'limi tashkil etildi. "Kasb ta'limi (faoliyat turi bo'yicha)", "Vokal ijrochiligi", "San'atshunoslik" (turlar bo'yicha), "Aktyorlik san'ati" (turlar bo'yicha), "Rejissyorlik san'ati" (turlar bo'yicha), "Xalq ijodiyoti" (turlar bo'yicha) yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlari ijodiy sinovlar tarzida o'tkazildi. Jarayonni har tomonlama o'tkazish uchun taniqli san'atshunos olimlar, teatr san'ati ustalari, O'zbekiston xalq artistlari baholadilar va mamlakatimiz tarixida birinchi marta ijodiy imtihonlar haqiqiy iste'dodlarni saralab berdi. Masalan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ijodiy imtihonlarni taniqli san'at ustalari, kinorejissyorlar, xalq shoirlari qabul qilib oladilar va imtihonlar jarayoni onlayn tarzda ota-onalarga to'liq namoyish etib boriladi, bu o'z navbatida iqtidorli yoshlarga keng imkoniyat

yaratadi. Milliy musiqamiz poydevori bo'lgan maqom san'ati qadimdan barkamol insonlarni tarbiyalashda o'ziga xos targ'ibot vositasi bo'lib kelgan. Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Ogahiy va yana ko'plab mumtoz shoirlarimizning g'azallaridan yaralgan qo'shiqlar insonning eng ichki nozik torlariga tegib, orom baxsh etadi.

Termiz shahrida har ikki yilda bir marta Xalqaro baxshichilik san'ati festivali, har ikki yilda bir marta Farg'ona vodiysining Qo'qon shahrida o'tkazilishi mo'ljallangan Xalqaro hunarmandchilik festivali 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish Strategiyasining madaniyat va san'at sohasidagi muhim islohotlari

Milliy qadriyatlar haqida so'zlaganda avvalo Toshkent shahrida Adiblar xiyobonini bezab turgan Alisher Navoiy, Abdulla Qahhor, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Zulfiya, Said Ahmad, Saida Zunnunova, Ozod Sharafiddinov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf yanglig' atoqli qalamkashlarimiz haykallari abadiy birdamlik ramzi sifatida qad ko'targani nafaqat so'z san'atiga, balki musiqa, teatr, kino san'atiga ham berilgan katta e'tirofdir.

2020 yilning 20 mayida davlatimiz rahbarining Adiblar xiyobonida adabiyot va ma'rifat haqida kuyunib gapirganlari, el suygan adiblar va shoirlarning ijodini targ'ib qilishni qator oliygoch jamoalari uchun sharaflari vazifa qilib qo'yganlari barcha oliygochlari murabbiylari qatori biz-O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari, talabalari uchun ham dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Xalqimizning suyuqli shoiri Muhammad Yusuf hayoti va ijodini targ'ib qilish borasida iqtidorli talabalar ishtirokida "Muhammad Yusuf-Vatan kuychisi" deb nomlangan qisqa metrajli film suratga olinayotgani, shoir dostonlari asosida taniqli sahna ustalari va ularning talaba shogirdlari ishtirokidagi yangi-yangi sahna asarlari xamda asarlari tahlili va targ'iboti bo'yicha ilmiy-nazariy ishlanmalar yaratishimizga asos buladi, Muhammad Yusuf she'riyati asosida Adiblar xiyobonida ochiq darslar olib borayotganimiz joriy yilning oktabr oyida "Yoshlarning ma'naviy olamini yuksaltirish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Muhammad Yusuf ijodining o'rni" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga tayyorgarlik ko'rayotganimiz, kelgusi yilda esa shoirning tavallud kuni munosabati bilan uning hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Muhammad Yusuf – Vatan va muhabbat kuychisi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazish rejalashtirilgan. Bu borada Turkiyaning nufuzli "Qardosh adabiyotlar" jurnalining bir sonini shoir xotirasiga bag'ishlash, Muhammad Yusuf nomidagi stipendiya ta'sis etilgani - amaliy harakatlarimiz so'zimizning amaldagi isboti bo'ladi.

Madaniyatni, ma'rifatni va san'atni rivojlantirmasdan turib, jamiyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Yaqindagina qabul qilingan "Alisher Navoiyning 580 yilligini keng nishonlash" borasidagi Prezident Qarori ham buyuk so'z ustasi Navoiy hayoti va ijodini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi tashkil etish, buyuk mutafakkir ijodiy merosini chuqur o'rganish va ommalashtirishga ulkan hissa qo'shgan mamlakatimiz va xorijiy fuqarolarni hamda ilmiy-ijodiy muassasalarni taqdirlash maqsadida Alisher Navoiy ordenini ta'sis etilishi ham iste'dodga, ijodga bo'lgan katta mehrning, e'tiborning yaqqol ko'rinishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haydarov A. Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari. – Toshkent. G'.G'ulom . 2016.
2. Qosimova D. Menejment nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2011.
3. Haydarov A. Harakatlar strategiyasi va ma'naviy yuksalish. – Toshkent: G'.G'ulom .2018.

4. Kalkanatov, Asilbek. "PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD." JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE 2.9 (2023): 19-23.
5. Kalkanatov, Asilbek. "THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES." Journal of Innovation, Creativity and Art 2.9 (2023): 7-10.
6. Abatbaevna, Saparbaeva Gulshira, and Qolqanatov Asilbek Nazarbaevich. "History of the Development of Spiritual and Educational Processes in Karakalpakstan." (2023).
7. ЮЛДАШЕВА, Манзура, and Асылбек КОЛКАНАТОВ. "ПУТИ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ." Journal of Culture and Art 1.1 (2023): 16-20.
8. Zokirovich, Muminmirzo Kholmuminov, and Asilbek Kolkanatov Nazarbaevich. "A LOOK AT THE HISTORY OF CLUB ESTABLISHMENTS AND CULTURAL AND EDUCATIONAL PROCESS IN UZBEKISTAN." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.2 (2022): 37-44.
9. Юлдашева, Манзура, and Асылбек Колканатов. "OILAVIY DAM OLISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIIY VA MADANIY MARKETING." Scientific journal of the Fergana State University 3 (2022): 6-6.
10. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "MUFASSAL MUSHOHADALAR ME‘MORIDAN MUFASSAL MUSHOHADALAR MEROJI." Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 568-580.
11. Yuldasheva, Manzura, and Asilbek Qolqanatov. "O ‘ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 254-260.
12. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY ISHLAR VA KUTUBXONALAR FAOLIYATI (XX ASR TAJRIBALARIDAN)." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 281-290.
13. Kholmuminov, Muminmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population." International Journal on Integrated Education 4.12 (2021): 146-151.
14. Kolkanatov, Asilbek. "IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH." JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH 2.11 (2023): 67-69.
15. Nazarbay o‘g‘li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." Academic Integrity and Lifelong Learning (France) 2 (2023): 15-21.
16. Kalkanatov, Asilbek, Shahabatdin Makhmatdinov, and Islam Urazbaev. "ACTIVITIES OF NEW KARAKALPAKSTAN CULTURAL CENTERS: REFORM AND ANALYSIS." Art and Design: Social Science 3.01 (2023): 1-4.
17. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "HIMMATNING QIYMATI ILM VA TAFAKKUR XAZINASI." World of Philology 2.1 (2023): 59-64.
18. QOLQANATOV, Asilbek. "'O ‘ZBEKKONSERT’ DAVLAT MUASSASASI FAOLIYATI: TADQIQOT VA TAHLIL." TA‘LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR 12 (2023): 8-14.

19. Nazarbai, Kolkanatov Asilbek. "NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION." Journal of Innovation, Creativity and Art 2.12 (2023): 65-70.
20. Alfiya, Qolqanatova. "Milliy Musiqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi." Journal of Creativity in Art and Design 1.2 (2023): 16-20.
21. QOLQANATOV, Asilbek. "MA'DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN." News of UzMU journal 1.1.1. 1. (2024): 16-20.
22. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." Academic Integrity and Lifelong Learning (France) 2 (2023): 15-21.